

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

*Navoiy viloyati Navoiy shahar 16-AFCHO'IM*

*Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

*Narziyeva Gulshod G'aybulloyevna*

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda turli xil zamonaviy metodlar yoxud qiziqarli o'yinlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar uchun bu yoshda yangilik ko'rilgan har bir narsa qiziqarli hisoblanadi. O'qituvchi ham ta'lim beradi, ham tarbiya beradi, balkim kashfiyotchi, psixolog bo'ladi. Ta'lim berish bilan birgalikda o'quvchilarning dunyoqarashi, fikrlash qobiliyati kengaytiriladi, ularning fikrlari, qiziqishlari o'rganiladi.

**Abstract:** Various modern methods or interesting games are important in teaching primary school students. For children at this age, anything new is considered interesting. A teacher teaches and educates, maybe a discoverer, a psychologist. Together with education, students' outlook, thinking ability is expanded, their thoughts and interests are explored.

**Аннотация:** В обучении младших школьников важное значение имеют различные современные методы или интересные игры. Для детей в этом возрасте все новое считается интересным. Учитель учит и воспитывает, может быть первооткрыватель, психолог. Вместе с обучением расширяется кругозор учащихся, мыслительные способности, исследуются их мысли и интересы.

Boshlang'ich sinf har bir o'quvchi uchun poydevor, ya'ni uyni ham poydevorsiz qurib bo'lmaganidek, boshlan'ich ta'limsiz ta'lim tizimini ham tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ta'lim sifati boshlang'ich sinfdan boshlab yuqori sifatli bo'lishi kerak. Bunda, albatta, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilim saviyasi, pedagogik mahorati muhim rol o'ynaydi.

**Kalit so'zlar:** Pedagogik mahorat, yangilik, o'yin texnologiyasi, "Blits" o'yini, boshlang'ich savollar

**Keywords** :Pedagogical skill, novelty, game technology, game "Blitz", initial questions

**Ключевые слова:** Педагогическое мастерство, новизна, игровая технология, игра «Блиц», исходные вопросы.

Maktab ta'limi bolaning turmush tarzini, ijtimoiy mavqeini, sinf jamoasi va oila muhitidagi o'rnini o'zgartiradi. Ya'ni maktabgacha bo'lgan davrdagi o'yin faoliyati o'qish faoliyati bilan almashib, o'quvchida mas'uliyat hissini uyg'otadi. Bunda boshlang'ich ta'limning mazmuni o'quvchining bilimlarini egallashga qiziqishi o'z aqliy mehnat natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam nazorat qilib borish, hamda hayotda qo'llay olish qobiliyatini shakllantirish, o'quvchilarning olayotgan bilimlaridagi bo'shliqlarini o'z vaqtida to'ldira borish, iqtidorli o'quvchilardagi intellektual potensialni muntazam rivojlanishiga shart-sharoit yaratish, o'quvchilarni kattalar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga qiziqtirish, ularning salomatliklarini muhofaza qilish va mustahkamlashga qaratilgan pedagogik yondashuvlar hamda tajribalarni boyitish, sinfdan tashqari pedagogik tadbirlar rejasini ishlab chiqish, o'quv tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, pedagogika fanining eng ilg'or yutuqlaridan muntazam foydalanish, o'qituvchilarning ota-onalar bilan hamkorlikdagi faoliyat yuritishlarini yo'lga qo'yish, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakalarini muntazam oshirib borishda zamonaviy usullardan foydalanish kabi vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi. [1,1654]

“Innovatsiya” – bu yangilik demakdir. Biz boshlang'ich sinf o'quvchilariga, albatta, biror yangiliklar yaratib bilim berib borsak, natijasi yaxshi bo'ladi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati doirasida aniq belgilanadi. Bu ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasini ko'rsatadi. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning vazifasiga aylandi. Men ko'pincha darslarimda “Blits-o'yin” texnologiyasidan keng foydalanaman. Ushbu texnologiya o'quvchilarni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy

fikrlashga, o`rganayotgan narsanng ko`p xilma-xil ma`lumotlardan kerakligini tanlab olishni o`rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida o`quvchilar o`zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o`tkaza oladilar, chunki bu texnologiya shunga to`liq sharoit yaratib beradi. Bu texnologiya yettita bosqichda amalga oshiriladi. O`quvchilar buni juda qiziqib bajaradilar va ularning yodida mavzu uzoq saqlanib qolishiga sabab bo`ladi. Darslarda axborot texnologiyalarining ishlatilishi, innovatsion g`oyalardan va yangi pedagogik texnologiyalardan o`z o`rnida foydalanish o`quvchilarning o`qishga bo`lgan motivatsiyasini, ularning qiziquvchanligini, mustaqil ishlarning samaradorligini oshiradi. Bulardan samarali foydalanish o`qituvchidan juda yuksak pedagogik mahorat talab qiladi. Biz o`qituvchilar har doim jajji o`quvchilarimiz uchun izlanishda, yangiliklar yaratishda bo`lishimiz lozim va bizning eng dolzarb vazifalarimizdan biridir.[2,88]

Boshlang'ich sinf o'quvchilari hali o'yinlardan voz kecha olmagan, o'yinqaroq, ko'proq sho'x tabiatli bo'ladi. Shuning uchun darsni turli xil samarali metod va qiziqarli o'yinlar bilan tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini fanlarni o'zlashtirishga yordam berish, ularni ilg'orlik bilan o'rganishga keng imkoniyatlar yaratish uchun bir qator muhim chor tadbirlar mavjud. Bu tadbirlar, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, fikr mulohazalarni rivojlantirish, va o'rganish jarayonini qiziqtirish maqsadida ishlatiladi.

Quyidagi qismlarda, boshlang'ich sinf o'quvchilarini fanlarni o'zlashtirishda yanada yaxshilash chora tadbirlari keltiriladi:

✓ 1. Darslar muhokama

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ilg'orlik bilan qiziqtirish uchun darslar davomida boshqalar bilan o'quvchilarning fikr almashishini taqdim etish muhimdir. O'quvchilar, o'zlarini ifodalash orqali, darsda o'rganilayotgan materialni o'zlariga qanday o'zgartirishlarga ega bo'lishlari kerakligini tushunishlari mumkin.

✓ 2. Boshlang'ich Savollar va Ilhomlantiruvchi Ma'lumotlar

Har bir dars boshlang'ich savollar bilan boshlanishi, o'quvchilarning fikr mulohazalarini chaqirish va ularni qiziqtirish uchun samarali usuldir. Boshlang'ich savollar, o'quvchilarning darsdagi mavzular bilan bog'liq savollarga javob qidirishlari va fikrini ifodalashlari uchun ularga imkoniyat yaratadi.

✓ 3. Real Hayotga Taalluqli Mashg'ulotlar

Fanlarni o'rganishga qiziqtirish uchun real hayotga taalluqli mashg'ulotlar, o'quvchilar bilan amaliy aloqada bo'lishni ta'minlaydi. Misol uchun, o'quvchilarga fanlarining qanday amalga oshirilishini ko'rsatuvchi qiziqarli laboratoriya ishlari, kasb-hunar darslari yoki tadqiqotlar tashkil etish, ularni o'rganishni amaliy qilishlari va tajriba olishlari uchun imkon yaratadi.

✓ 4. O'quvchilarni o'zlashtirish uchun sahna

O'quvchilarni o'zlarini qo'llab-quvvatlash, ularning o'rganishini o'zlarini boshqalarga o'qitish, darsda yoki maktabning boshqa muhitida sahna tashkil etish juda muhimdir. Sahna, o'quvchilarni ijodiy faoliyatga chaqirish, ularning o'zlarini ifodalash va o'rganish bo'yicha o'z fikrlarini bayon etishlari uchun muhim imkoniyat yaratadi.

✓ 5. Fikr-almashtiruvchi yarim soatlar

Fanlarni o'rganish jarayonida fikr-almashtiruvchi yarim soatlar o'tkazish, o'quvchilarni qiziqtirish va ularning o'rganishiga qiziqishni oshirish uchun mo'ljallangan vaqt beradi. Bu yarim soatlar o'tkazishda o'quvchilar, bir-birlari bilan fikrlar almashish, savollar berish va o'zlarining bilimini o'zlashtirishlari uchun zarur bo'lgan muhitni topishlari mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini fanlarni o'zlashtirishda yanada yaxshilash chora tadbirlari, ularni o'rganishga ilhomlantirish va fikr-mulohazalarini rivojlantirishga yordam berishga xizmat qiladi. Bu tadbirlar, o'quvchilarning ilg'orlik bilan o'rganishini kuchaytiradi va ularga fanlar bilan yaqinroq tanishish va qo'shimcha ilg'or bilan o'rganish uchun ilhomlantiradi.[3,414-415]

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak. Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda. 1-sinf darsligidagi «Oshxona

jihozlari», «Qushlar», «Uy hayvonlari va parrandalar» kabi mavzularini o'rganishda yangi mavzuni mustahkamlash uchun mazkur metodni qo'llash ijobiy natija beradi. Bunda mavzuga oid to'rtta va taalluqli bo'lmagan (ortiqcha) bitta so'z (tushuncha, fikr) beriladi.

O'quvchilar ana shu so'zni (tushuncha, fikr) aniqlaydilar.

Masalan, 1-sinf darsligidagi 1-mashqda berilgan topshiriqni bajarishda quyidagicha qo'llash mumkin. Yozuv ekranda ko'rsatiladi. O'quvchilar ortiqcha so'zni aniqlashadi:

Uy hayvonlari: sigir, qo'y, toshbaqa, ot, it. So'ng bu so'zlar ishtirokida gap tuzish topshirig'i beriladi va tuzilgan gaplar asosida axloqiy tarbiya beriladi.

Namuna: Ot - insonning eng ishonchli do'sti.

O'quvchilar tomonidan tuzilgan gaplar asosida o'quvchilar qalbida ona tabiatga muhabbat uyg'otiladi, uy hayvonlariga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishga o'rgatiladi.[3] Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Bizningcha, ta'limiy o'yinlarga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

- 1. Ta'limiy o'yinlar o'quvchilar yoshiga mos bo'lishi kerak;
- 2. O'yinlar o'tilayotgan mavzu mazmun-mohiyatiga mutanosib bo'lishi lozim;
- 3. Ta'limiy o'yinlarni o'tkazish vaqti aniq belgilanishi shart;
- 4. Ta'limiy o'yinlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak;
- 5. Ta'limiy o'yinlarning o'tkazilish maqsadi, ahamiyati belgilanishi lozim.

Yuqoridagi talablarga amal qilingandagina dars samaradorligi ortadi va zamonaviy texnologiyalar ta'lim samaradorligiga xizmat qiladi.[4]

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar Pedagogical Education Cluster: Problems and Solutions Кластер педагогического образования: проблемы и решения, Nasiba Rustamovna Mamatqulova, BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QUV FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI, 1654-b

2. Omonova Dilnavoz Musurmonovna, BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI O'RNI, 88-b

3. ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-12, Xolbekova Dilbar Turayevna, BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH VA FANLARNI O'ZLASHTIRISHINI YANADA YAXSHILASH, 414-415

4. <https://kun.uz/news/2019/11/27/boshlangich-sinfda-oqitishning-zamonaviy-texnologiyalaridan-foydalanish-usullari?q=%2Fuz%2Fnews%2F2019%2F11%2F27%2Fboshlangich-sinfda-oqitishning-zamonaviy-texnologiyalaridan-foydalanish-usullari>